Under these noble goals set before us, educators working in preschool education organizations are required to form a healthy and mature personality of the child, ready for school, study and writing. Educators of pre-school education organizations are definitely focused on sensory education in the comprehensive formation of children, that is, their artistic and aesthetic education, regularly planned development of cognitive abilities, and arming them with a system of knowledge.

Keywords: Education, education, artistic and aesthetic education, intuition, perception, sensory education, sensory culture, sensory skills, sensory standards.

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy-estetik tarbiyani rivojlanishi maktabgacha ta’limning o‘quvjarayoni mazmunida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi, bu yerda birinchi o‘rinda avlodlarning ijodiy tajribasini maktabgacha yoshdagi bolalar madaniyati bilan tanishtirish, dunyoga hissiy va qadriyatlarga asoslangan munosabatni shakllantirish, badiiy va ijodiy faoliyat jarayonida shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirish uchun sharoit yaratish muammolari keltiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv rivojlanish murakkab fenomen sifatida qaraladi, bu bolaning atrofidagi dunyoga yo‘naltirilishining turli shakllarini ifodalovchi kognitiv jarayonlarning (fikrlash, xotira, e’tibor, tasavvur, idrok) rivojlanishini o‘z ichiga oladi o‘zi va faoliyatini tartibga soladi. V. G. Kamenskayaning so‘zlariga ko‘ra, 5-7 yoshda maktabgacha yoshdagi bolalar kognitiv funksiyalarda o‘zgarishlarni boshdan kechiradilar - boy ijtimoiy munosabatlar va tengdoshlar bilan o‘zaro munosabat tufayli bola ijtimoiy dunyoda o‘zini o‘zi anglash tajribasini jadal ravishda to‘playdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ta’lim-tarbiya ishlarining takomillashib borishida Sharq va G‘arb pedagoglarining muhim o‘rni bor. Markaziy Osiyoning mashhur allomalaridan Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi jahon tan olgan mutafakkirlar o‘zlarining asarlarida ta’lim-tarbiyaga katta e’tibor qaratganlar.

Faylasuf olim Farobiy o‘zining «Fozil odamlar shahri» asarida tarbiya orqali insonga beriladigan 12 fazilatni sharhlab beradi.

Abdulla Avloniy esa tarbiya haqida g‘oyat ibratli fikrlarni bildiradi. «Pedagogika Abdulla Avloniyning yozishicha, – bola tarbiyasining fani, demakdir». «Dars ila tarbiya ikkisi jon ila tan kabidir», «Dars oluvchi – biluvchi, tarbiya oluvchi – amal qiluvchidir». Bu yerda pedagogika faniga qisqa va lo‘nda ta’rif berib, ta’lim bilan tarbiyani esa jon bilan tanga o‘xshatib, ularni bir-biridan ajratib tushunish mumkin emasligini yorqin ifodalab bergan. Avloniyning ta’kidlashicha, tarbiyani yoshlikdan berish nihoyatda zarur. Bolaga avvalo, kichik yoshdan boshlab, ota-ona tarbiya beradi, keyin tarbiya bilan butun jamoatchilik shug‘ullanadi, chunki bunda inson taqdiri hal etiladi deydi [3].

Bu sohada Sharq va G‘arb xalqlari yaratgan og‘zaki ijodiyot, buyuk mutafakkir, pedagog va olimlarning ta’lim-tarbiyaga doir ilg‘or fikrlarini o‘rganib, tahlil qilib, barkamol insonni tarbiyalash jarayonini o‘rganish biz uchun juda qimmatlidir:

ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi qonun-qoida tamoyil, metod va usullarni bolalar bog‘chalarining amaliy hayoti bilan bog‘lab, bo‘lajak tarbiyachi - o‘qituvchilarga o‘rgatish hamda xalq ta’limini boshqarish va rahbarlik masalalarini chuqur o‘rganib, bo‘lajak tarbiyachilarni qanday tayyorlash muammolarini hal qilish;

maktabgacha tarbiya muassasalarida oila bilan uzviy hamkorlikda bolalarni har tomonlama rivojlantirish ishini amalga oshirish.

Bunday vazifalarda tadqiq etish:

birinchidan, bolalar sog‘lig‘ini saqlaydi va mustahkamlaydi, jismoniy rivojlanishini ta’minlaydi;

ikkinchidan, ilmga qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantiradi;

uchinchidan, Vatanga, tabiatga, jonajon o‘lkaga muhabbat, kattalarga hurmatni, o‘rtoqlik va jamoatchilik, xayrixohlik, xulq madaniyati, mustaqillik, uyushqoqlik va intizom, mehnatsevarlik kabi ijobiy fazilatlarni tarbiyalaydi;

to‘rtinchidan, estetik tarbiyani amalga oshiradi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta’lim berish tizimi pedagogikada ilk bor chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592—1670) tomonidan yaratilgan. Ya. A. Komenskiy 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarga ta’lim va tarbiya berish mumkinligini ko‘rsatib berdi. Shu bilan Ya. A. Komenskiy maktabgacha tarbiya

pedagogikasining mustaqil fan sifatida shakllanishiga asos soldi [4].

Shveysar pedagogi I. G. Pestalotssi (1746-1827) maktabgacha tarbiya didaktikasini tuzishda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni rivojlantirish masalasiga katta e'tibor beradi. G. Pestalotssi tomonidan ishlab chiqilgan ta'limning asosiy mazmuni maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishda va bolalarga keyinchalik maktabda sistemali ta'lim berishda asosiy dastur bo'lib xizmat qildi [5].

Hozirgi zamon maktabgacha ta'lim nazariyasini yaratishda A. P. Usovaning xizmatlari katta ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning asarlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ishlab chiqarilgan davlat talablari, O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga samarali ta'lim-tarbiya berish maqsadida Maktabgacha ta'lim va tarbiya Davlat standartlari, "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat o'quv dasturi ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjat hisoblanadi. Ushbu davlat xujjatida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maqsad va vazifalari, o'quv-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning zamonaviy shakl, vosita va metodlari o'z ifodasini topgan. Unda maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'limning keyingi bosqichi – maktabga tayyorlashning asosiy soha kompetentsiyalari belgilab berilgan.

Tahlil va natijalar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda hissiy bilish juda katta ahamiyatga ega. His qilish esa sezgi va idrokka asoslanadi. Tasavvurlarning asosini esa bevosita sezish orqali idrok etish tashkil etadi. Bu bilan bola zavqlanadi, boladagi badiiy-estetik rivojlanish yuzaga keladi. Bu kabi tasavvurlarning aniqligi esa sensor jarayonlarning rivojlanishi bilan belgilanadi.

Sensor tarbiya deganda idrok va sezgining bir maqsad tomon qaratilgan holda rivojlantirish tushuniladi. Sensor so'zi lotincha "sensus"-"tuyg'u", sezgi", "idrok", "sezish qobiliyati" ma'nolarini bildiradi. Bu tushuncha orqali bolalarda badiiy ijodkorlik, zavq, nafosat xususiyatlari namoyon bo'ladi. Sezgi va idrok qanchalar boy bo'lishiga qarab, insonning atrof-muhit, borliq haqidagi ma'lumotlari keng va ko'p qirrali bo'ladi. Bolalarning sensor madaniyati undagi sezgi va idrokning rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bu esa o'z navbatida bola faoliyatining muvaffaqiyati uchun muhim shart-sharoit bo'lib xizmat qiladi. Sezgi-bu atrof olamdagi moddiy dunyoni, narsa va hodisalarning inson ongida aks etishidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy-estetik tarbiyani rivojlantirishda sensor tarbiyaning ahamiyati bolalarning sensor qobiliyatlarini o'stirishdan iborat. Bolalarga ranglarni, tuslarni, shakllarni, tovushlar balandligi va tembrini farqlay bilish, shakl va ranglar birikmasini, tasviriy san'at va musiqa asarlarini yanada yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Musiqa tinglash, suratlar va haykallar, qushlar, hayvonlar, turli rangdagi gular va hakozolarni ko'rib zavqlanadilar. Bolalar faqatgina zavqlanib qolmasdan ularni ushlab ko'rishlari, hajm va shakllarini farqlay olishlari, ularni qachon va nima maqsadlarda ishlatilishini chuqurroq idrok etishlari hamda bu jarayonda o'zlarining xilma-xil sezgilari va idroklarini takomillashtirishlari talab etiladi.

Sensor tarbiya quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishni talab etadi.

1. Bolalarda perseptiv harakatlarni shakllantirish.
2. Buyumlarning xususiyati, sifati, munosabati to'g'risidagi umumlashgan

tasavvurlar, sensor etalonlar tizimini shakllantirish.

Perseptiv qobiliyat –bu bolalarning ruhiy holatini his qilish, tushuna olish orqali yuzaga chiqaruvchi qobiliyatdir.

Bolalar qancha tabiat bilan hamnafas bo‘lsalar ularda sensor etalonlar haqidagi tasavvurlar hosil bo‘ladi. Asosiy ranglar, shar, kub, aylana, kvadrat, romb va shu kabi geometrik shakllar, notalarda ifodalangan musiqali tovushlarning turli balandligini etalonlar jumlasidandir. Bolalarda sensor etalonlarni o‘zlashtirish uzoq davom etadigan va murakkab jarayon hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davri sensor jarayonlarni rivojlantirish davri hisoblanadi va bu davrda sensor tarbiya muhim o‘rin egallaydi. Mariya Montessori yaratgan Maktabgacha ta’lim texnologiyasi maktab yoshdagi bolalarni tarbiyalash borasida barcha tizimlar orasida ajralib turadi. Montessori metodikasi bo’yicha maktabgacha yoshdagi bolalarni sensor tarbiyalashda quyidagi maqsadlar nazarda tutilishi kerak.

1. Barcha tashqi hissiyotlarni shakllantirish.

2. Tashqi hissiyotlarni tarbiyalash orqali hali to‘liq shakllanmagan barcha ruhiy jarayonlarni rivojlantirish kerak. Chunki diqqat, intelekt va iroda to‘liq rivojlanmagan bo‘ladi.

3. Odatiy bir yoqlama madaniy tasavvurdan xalos bo‘lish.

4. Nutq apparatlari orqali tilni rivojlantirish, so‘z boyliklarini oshirish.

5. Bolalarning ruhiy va jismoniy imkoniyatlariga muvofiq tarzda, o‘z-o‘ziga xizmat qilishda ehtiyoj va talablarni rivojlantirish.

Mariya Montessori yuqorida ko‘rsatilgan pedagogik maqsadlarga erishish uchun bolalarni yaxshi sharoitda tarbiyalashni tavsiya etadi.

XX asr boshlarida Mariya Montessori tomonidan ishlab chiqilgan sensor tarbiya sistemasi bolalarning shakl va hajm, rang va tuslarni yuksak darajada farqlay olishga erishishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Bunda bolalar qo‘ldagi mayda muskullarni rivojlantirishga, predmetlarning hajmlari va shakllaridagi arzimagan farqlarni ushlab ko‘rib aniqlash qobiliyatlarini rivojlantirishga, rang tuslardagi nozik farqlarni payqab olishga alohida e’tibor bergan. Bolalarda bu kabi qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ular bilan ko‘proq tabiat qo‘ynida mashg‘ulotlar olib borish lozim. Tabiatda ro‘y beradigan hodisalarni, quyoshning nurlarini sochishi, shabbodaning esishi, yomg‘irdan so‘ng osmonda kamalakning paydo bo‘lishini kuzatishlari hamda tevarak-atrof bilan tanishishlari kerak.

Masaru Ibuka “Uchdan keyin kech” kitobida shunday yozadi; “Televizion dasturlar muntazamligi bolada vaqt tushunchasini shakllantiradi. Odatda go‘daklar faqat bugun bilan yashaydi, uning uchun “o‘tmish” va “kelajak” tushunchalari mavjud emas. Taxminan ikki yarim yoshida, aniqrog‘i gapirishni boshlaganida bola “avval”, “keyin”, “kecha” va “ertaga” nima ekanligini tushuna boshlaydi. Boshqacha qilib aytganda bola nutqni tushuna boshlaganida va gapirishni o‘rganganida unda vaqt tushunchasi paydo bo‘ladi” deb ta’kidlab o‘tgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, bolalarni ongini, tasavvurlarini va sezgi, idroklarini rivojlantirishda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari talim-tarbiya va aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyasining asosi hisoblangan sensor tarbiyaga asoslangan holda ish faoliyatlarini olib borishlari maqsadga muvofiqdir. Yurt poydevori va ertasi, kelajagi bo‘lgan farzandlarni har tomonlama yetuk va

mukammal, komil va barkamol qilib tarbiyalash maktabgacha ta’lim tarbiyachilari zimmasida ekan, bu kabi sharafli burchni mas’uliyat bilan ado etmoqlikka qat’iy yondashish va bajarish shartdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: “Sharq” 1997. – B.14-15.
2. Qodirova F., Toshpo‘latova SH., Kayumova N., A’zamova M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: “Tafakkur” Nashriyoti, 2019. – B.177.
3. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2018. . – B. 107.
4. Yadeshko V I., Soxin F. A. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi taxriri ostida. – Toshkent “O‘qituvchi”, 1981. – B. 197.
5. Rang va shakllarni o‘rganamiz. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun multimedia dasturi. . – Toshkent: “O‘zbegim dasturlari”. 2008. – B. 3.
6. Masaru Ibuka “Uchdan keyin kech” (4-nashr). – Toshkent “Akademnashr” 2021. – B. 163.
7. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2018
8. Jalolova G. Q. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash. Metodik tavsiyalar. – Toshkent, 2004.

DARSLARDA INTERFAOL USULLARGA ASOSLANGAN MASHG‘ULOT VA TEXNOLOGIYALARNING TALABALAR AQLIY QOBILIYATLARI RIVOJIGA TA‘SIRI

Mustafoqulova Feruza Inomovna, Jizzax politexnika instituti Xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail:feruza.mustafokulova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada turli chet tillarini o‘rgatishda interfaol usullardan foydalanish mavzusi muhokama qilinadi. Bunda hamisha interfaol usullar bilan birga qo‘llanib kelingan an’anaviy o‘qitish usullari solishtirilib, aniq kuzatishlar asosida yakuniy natijaga oid xulosalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: interfaol usullar, kommunikativ muloqot, an‘anaviy dars, zamonaviy texnologiya.

ВЛИЯНИЕ ОБУЧЕНИЯ И ТЕХНОЛОГИЙ НА ОСНОВЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА ЗАНЯТИЯХ НА РАЗВИТИЕ УМСТВЕННЫХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье рассматривается тема использования интерактивных методов в обучении различным иностранным языкам. При этом сравниваются традиционные методы обучения, которые всегда используются вместе с интерактивными методами, и на основе конкретных наблюдений делаются выводы о конечном результате.

Ключевые слова: интерактивные методы, коммуникативный аспект, традиционный урок, современные технологии.

THE EFFECT OF TRAINING AND TECHNOLOGIES BASED ON INTERACTIVE METHODS IN CLASSES ON THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' MENTAL SKILLS

Abstract. This article discusses the importance of using interactive methods and educational materials in teaching different foreign languages. In this, traditional teaching methods, which have always been used together with interactive methods, are compared, and conclusions of the final result are given based on specific observations.

Keywords: interactive methods, communicative light, traditional lesson, modern technology.

Kirish. Hozirgi kunda chet tillarini o‘rgatish va o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-

tadbirlar ham xorijiy tillarni o‘rganish va amaliyotda qo‘llash uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Unga ko‘ra, kollej, litsey, oliy o‘quv yurtlari va maktablarda rus tili bilan bir qatorda ingliz, nemis, fransuz kabi tillar ham o‘qitilib, Yevropa talablari asosida ko‘nikma va malakalarni baholash usullari ishlab chiqildi. Bizga ma’lumki, har qanday chet tili fanlari to‘rtta muhim jihatga (tinglash, o‘qish, yozish va gapirish) bo‘linadi. Har bir jabhada maxsus ko‘nikma va tushunchalar berish jarayonida ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Ta’lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish ta’lim sifati va samaradorligini oshirish demakdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shuni ta’kidlash kerakki, interaktiv o‘qitish usullari 1970-yillardan, ya’ni texnologiyalar hayotimizda ajralmas o‘rin egallay boshlagandan buyon o‘rganilib kelinmoqda, ayniqsa, bu izlanishlar 1980-yillardan muvaffaqiyat cho‘qqisiga chiqqan. Chet el olimlari orasida G. Lozanov, Yu. Shexter, A. Shuxin, O. Balansiyeva, Olga M. Trubitsyna, Olena I. Mamonova, T. Polza kabilar ilmiy ish darajasida o‘rganishgan. Bolgar professori G. Lozanov, tilshunos olimlar va psixolingvistlarning intensiv usullarini ishlab chiqdilar. Quyida chet tillarini o‘rgatishning shu usullarini keltirib o‘tamiz [2, 28-b]:

– emotsional-semantik (o‘quvchilarning ichki imkoniyatlaridan foydalanish usuli) usuli;

– katta yoshdagi o‘quvchilarni o‘qitishning tizimli usuli.

Tadqiqot metodologiyasi. Darslarni tashkil etish shakli, maxsus usuli, materia bilan tanishtirish, nutqni shakllantirish va talabalarning kommunikativ qobiliyatlari o‘sishiga o‘qitish jarayonining interaktivligi tufayli erishiladi.

Xususan, chet tillarini o‘rganish va o‘qitishda bunday kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning bir qancha muhim afzalliklari bor. Hozirda IELTS, TOEFL, Goethe Sertifikat kabi chet tilini bilish darajasini baholash testlari ishlab chiqilgan. Bu jarayonlarda texnologik vositalardan foydalanish chet tilining har bir jabhasini o‘rgatishda noan’anaviy va interfaol vazifalar kabi zamonaviy yondashuvlar bilan birga keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun turli qurilmalar, pleyerlar, kompakt disklarsiz tasavvur qilish qiyin. Shu sababdan zamonaviy texnologiya va usullardan foydalanish zarur. Ushbu texnik vositalardan foydalanish chet tilini o‘rganish jarayonini o‘quvchilar uchun qiziqarli va samarali qiladi, bundan tashqari, harakatli o‘yinlar yordamida dars davomida o‘quvchilar diqqatini bir joyga jamlaydi.

Interfaol usul – ta’lim jarayonida o‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirishning eng maqbul yo‘lidir. O‘quvchilarning bilim olishini faollashtirish, ularning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol usullardan foydalanish dars samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Interfaol ta‘limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin ifodalash va undan foydalanish imkoniyati, ekspozitsiyalar soni kam, lekin seminarlar soni ko‘p, talabalarning tashabbuskorligi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash, yozma ishlarni bajarish va boshqa usullardan iborat bo‘lib, ular tarbiyaviy ish samaradorligini oshirishda alohida ahamiyatga ega.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda til o‘rganish va o‘qitishni kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu bilan birga, o‘qituvchi hozirda

barcha ma’lumotlarni tushuntirib, an’anaviy tarzda dars tashkil etmaydi, faqat o‘quvchilarga mustaqil izlanishga ko‘rsatma beradi va tushuntiradi. Buning uchun o‘quv jarayonida noodatiy innovatsion interaktiv topshiriqlar tizimi va darsni tashkil etish talab etiladi. Hozirgi vaqtda har bir o‘qituvchi darsda induktiv o‘qitish usulidan foydalanishni afzal ko‘radi. Bunda asosiy mavzuni o‘quvchiga tanishtirishdan oldin mavzuga oid turli ko‘rgazmali materiallar talabaga taqdim etiladi. Keyin o‘ylantiruvchi savollar beriladi. Bu talaba savollarga javob topishni intiqlik bilan kutayotgan bir paytda, unga kontekstlar sekin-asta tanishtiriladi. Bu usul o‘qitish jarayonini tushuntirish, oydinlashtirish va asoslashga yo‘l ochadi. Endi o‘quvchi o‘z olgan bilimlarini tahlil qilib, tushuna boshlaydi. U oldingi bilimlari bilan bog‘lanish va farqlarni ajrata oladi. Umumiy o‘qitish jarayonida o‘quvchi ijodiy ish bajaradi. Olingan barcha bilimlardan foydalanib, u tajriba o‘tkazish uchun o‘z rejasini tuzadi. O‘quvchi xohlaydimi yoki yo‘qmi, biladimi yoki yo‘qmi mavzuga qiziqishini ko‘rishimiz mumkin. Albatta, interfaol mashg‘ulotlarni o‘tkazishda interfaol usulni to‘g‘ri tanlashni bilish kerak. Bunda o‘quvchining yoshi, bilim darajasi va muhitini hisobga olish zarur.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda qadimdan rivojlangan interfaol usullardan foydalaniladi. Xuddi shunday uslublarni turli she’riyat kechalari, bahs-munozaralarida ham ko‘rishimiz mumkin. Bu usullar o‘quvchilarning tafakkuri, aql-zakovati, tafakkuri, iqtidori va nutqini rivojlantirib, ularni mustaqil, barkamol qiladi va komil inson bo‘lib shakllanishiga xizmat qilib keladi.

Ko‘rinib turibdiki, interfaol metodning asosiy maqsadi ta’lim jarayonlarida ta’lim sifatini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali o‘quvchining faol fikrlashi uchun erkin muhit yaratishdir. U o‘zining potentsial imkoniyatlari va aqliy salohiyatini namoyon etib, ta’lim samaradorligi va sifatini oshirishga yordam beradi. Darslar interfaollik asosida shunday tashkil etilganki, dars davomida hech bir talaba chetda qolmaydi. Har bir inson o‘z fikri va bilimini ochiq va ikkilanmasdan ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki interfaol usullarda asosiy e’tibor nafaqat o‘rgatish va bilim berishga, balki fikri to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lishidan qat’iynazar, fikrlashga undashga ham qaratiladi. Har xil interfaol usullar mavjud va ularning barchasi har qanday progressiv metodlar kabi, birinchi navbatda, mashg‘ulot oldidan o‘qituvchidan katta tayyorgarlikni talab qiladi.

Dars jarayonini oqilona tashkil etishda o‘quvchilarni rag‘batlantirish, turli kichik materiallardan foydalanish, mavzu bo‘yicha savol-javoblar berish orqali aqliy hujum tashkil etish, muammoli vaziyatlar berish, o‘z ustida ishlashga o‘rgatish, bahs-munozaralar o‘tkazish, kichik guruhlarda ishlash kabi usullar juda muhimdir. Ta’lim jarayonlariga interfaol usullarni to‘liq tatbiq etish borasida shuni ta’kidlash joizki, zamonamiz yoshlari o‘tmishdagi ajdodlarimizdan zamonaviy qarashlari va ayniqsa, ilg‘or raqamli texnologiyalardan foydalanish qobiliyati bilan ajralib turadi. Hozirda bunday kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, nafaqat qiziqarli interaktiv o‘yinlardan foydalanish, balki puxta va aqlli ta’lim berish ham davrning dolzarb muammosiga aylanib bormoqda. Binobarin, kelajak avlodni barkamol shaxs etib tarbiyalash uchun kuchli mezon, mehnatsevarlik, epchillik va puxta rejalashtirish talab etiladi. O‘qitish jarayonida biryoqlama yondashuvsiz turli xil an’anaviy va

zamonaviy metodlarni uyg‘unlashtirib qo‘llash katta rol o‘ynaydi. Bunda o‘qituvchi mavzuga turlicha yondashuvlar asosida mavzu beradi va berilgan bilimlarni boshqa interfaol o‘yinlar yordamida mustahkamlaydi. Dars oxirida mustaqil ishlashlari uchun loyihalar yoki turli muammoli vaziyatlarni taqdim etadi. Quyidagi jadvalda zamonaviy interfaol usullar bilan ishlashning dars jarayonidagi tarkibiy qismlari keltiriladi:

Jadval 1.

Interfaol usullar bilan ishlashning dars jarayonidagi tarkibiy qismlari

Kirish	Qo‘shiqlar, raqslar
Yangi mavzuni tushuntirish	mavzuga oid turli ko‘rgazmali materiallar talabaga taqdim etiladi. Keyin o‘ylantiruvchi savollar beriladi. Bu talaba savollarga javob topishni intiqlik bilan kutayotgan bir paytda, unga kontekstlar sekin-asta tanishtiriladi
Mavzuni mustahkamlash	Rag‘batlantiruvchi mashqlar, videodarslar, audioyozuvlar, rasmli boshqotirmalar
Mustaqil ish	Loyihalar yoki turli muammoli vaziyatlarni taqdim etish
Uyga vazifa berish	O‘rganilayotgan chet tilida lug‘at boyligini oshirishga xizmat qiluvchi topshiriqlarning mavzuga oid tizimli to‘plamlaridan foydalanish

Yuqoridagi jadval asosida Jizzax politexnika institutining turli fakultetlari talabalari orasida xorijiy tili sifatida nemis tili o‘qitiladigan guruhlar tanlab olinib, ularga “Aqliy hujum”, “Munozara”, “Klaster”, “Baliq skeleti”, “Debat”, “Aylana stol” kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida mashg‘ulotlar tashkil etildi. Tajriba o‘quv rejasida xorijiy til uchun umumiy 60 soat ajratilgan guruhlarda amalga oshirildi. Bunda sinov uchun ajratilgan umumiy amaliy dars soatlari, ya’ni 30 soatning yarmi an’anaviy dars mashg‘uloti shaklida, qolgan yarmi interaktiv usullar asosida tashkil qilindi. Natijalar esa kutilganidek: noan’anaviy mashg‘ulotlarda qatnashgan talabalar dars nihoyasiga yetishini xohlashmadi, dars markazida o‘qituvchi emas, talabalar faolligi kuzatildi, dars nihoyasida talaba va o‘qituvchi orasidagi chegara uzoqlashib, talaba o‘zini qiziqtirgan savollarni bemalol so‘ray olganligi interfaol usullarga asoslangan mashg‘ulotning talabalar aqliy savodxonligiga juda ijobiy ta’sir etganligiga guvoh bo‘lindi.

Xulosa va takliflar. Albatta, loyiha ustida ishlash ularning ijodiy fikrlashini va yangi narsalarni yaratishga ishtiyoqini oshiradi. Xulosa qilib aytganda, chet tili o‘qitish jarayonlarida innovatsion usullarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning nutqi ravon bo‘ladi, aqliy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, to‘g‘ri va tezkor javob berish ko‘nikmalari shakllanadi. Bunday interfaol usullar talaba va yoshlarning bilim olishga intilishini oshirish bilan birga, psixologik jihatdan ham rag‘batlantiradi.

Natijada o‘quvchilar dars jarayoniga puxta tayyorgarlik ko‘rish, ta’lim sifatini oshirishga kirishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bekmuratova U. B. “Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan olib borish” mavzusida murojaat. – Toshkent, 2012 yil.
2. Xatamova N. Q., Mirzayeva M. N.. “Ingliz tili darslarida qo‘llanmagan interfaol usullar” (uslubiy qo‘llanma), – Navoiy, 2006, 40-b.
3. Hoshimov O‘., Yoqubov I. “Ingliz tili o‘qitish metodikasi” (o‘quv qo‘llanma) – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2003 Muminov F. M. Mo‘minova. – Tekst: neposredstvennyy // Molodoy uchenyy. 2020. – № 18 (308). – S. 590-592 – URL: https://moluch.ru/archive/308/69404/ (ma’lumotlar manzili: 20.01.2022)
4. Otaboeva M. R. Chet tilini o‘qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan yuklash va uni olib borish / M. R. Otaboeva. – Tekst: neposredstvennyy, elektronnyy // Molodoy uchenyy. – № 109 4.2 (138.2). 2017. – S. 36-37. – URL manzili: https://moluch.ru/archive/138/39058/
5. Мамаризаева Ф. Литеральный перевод – средство литерального общения и взаимодействия. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 6(3), 2022. – С. 50–55. https://www.scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/78

ARALASHTIRILGAN TA’LIM SHAROITIDA O‘QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Shodiyev Muhiddin Berdimuratovich, Jizzax politexnika instituti “Xorijiy tillar” kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail:shodievmuhiddin@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola aralash ta’lim kontekstida talabalarning aqliy salohiyatini rivojlantirishni o‘rganadi. Ishning dolzarbligi talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish uchun yangi shart-sharoitlarga bo‘lgan ehtiyojdir. Ishning maqsadi - kommunikativ kompetentsiyalarni rivojlantirish uchun aralash ta’lim samaradorligini isbotlash. Maqolada o‘qituvchilar uchun aralash ta’limni amalga oshirishda kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan, shuningdek, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish darajalari keltirilgan. Bu jarayonda oliy ta’lim muassasalarida elektron ta’limni qo‘llashning mohiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: muloqot qobiliyatlari, aralash ta’lim, o‘rta maktab, elektron ta’lim, elektron kurslar.

DEVELOPMENT OF STUDENTS' COMMUNICATIVE COMPETENCES IN THE CONDITIONS OF MIXED EDUCATION

Abstract. This article examines the development of students' communicative competencies in a blended learning context. The urgency of the work is the need for new conditions for the development of students' communicative abilities. The purpose of the work is to prove the effectiveness of mixed education for the development of communicative competences. The article provides recommendations for the development of competencies for teachers in the implementation of mixed education, as well as the levels of development of communicative competencies. In this process, the essence of using electronic education in higher education institutions is revealed.

Keywords: communicative skills, blended learning, high school, e-learning, e-courses.

РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ СМЕШАННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматривается развитие коммуникативных компетенций студентов в условиях смешанного обучения. Актуальность работы заключается в необходимости создания новых условий для развития

коммуникативных способностей студентов. Цель работы – доказать эффективность смешанного образования для развития коммуникативных компетенций. В статье даны рекомендации по развитию компетенций учителей при реализации смешанного образования, а также уровни развития коммуникативных компетенций. В этом процессе раскрывается суть использования электронного образования в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: коммуникативные навыки, смешанное обучение, высшая школа, электронное обучение, электронные курсы.

Kirish. Zamonaviy oliy ta’limning asosiy xususiyatlaridan biri yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi asosida o‘quv jarayonini tashkil qilishdir. Ushbu hujjat talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy qilishni belgilab berdi. Shunday qilib, ular o‘zlarining bandlik istiqbollarini kengaytirish va mehnat bozorida raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni kasbiy sohada ijodiy va mustaqil ravishda amaliyotda qo‘llashlari kerak. Bundan tashqari, yangi texnologiyalar joriy bo‘lgani sayin kadrlar tayyorlash masalasida yana bir muhim talab paydo bo‘ldi, ya’ni elektron ta’limdan foydalanish [4, 227-b]. Ularsiz oliy o‘quv yurtlari malakali bitiruvchilarni tayyorlash hozirgi kunda qiyin bo‘lmoqda. Biroq, bunday ta’lim turining barcha afzalliklariga qaramay, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish darajasini pasaytirish xavfi mavjud, chunki vazifalarning aksariyati o‘quvchilar tomonidan elektron muhitda o‘qituvchi va sinfdoshlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa qilmasdan amalga oshiriladi [3, 198-b]. Bugungi kunda ushbu muammoni hal qilishning eng samarali usuli, bizning fikrimizcha, aralash ta’limdan foydalanishdir. Ish jarayonida aralash ta’lim sharoitida kommunikativ kompetentsiyalarni rivojlantirish samaradorligini tekshirish vazifasi hal qilinadi. Ya’ni, mavzuning dolzarbligi muammoning nazariy jihatdan yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda aralash ta’limning afzalliklarini amaliy asoslash zarurati bilan bog‘liq.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning maqsadi bitiruvchi talabalarda mustaqil ravishda kasbiy faoliyatda qo‘llashi mumkin bo‘lgan kompetensiyalarni yaratish orqali ta’lim sifatini ta’minlashdan iborat. Ya’ni, talabalar oliy o‘quv yurtlarida o‘qish davomida katta hajmdagi amaliyot oladilar. Bundan tashqari, ular nafaqat ma’lum miqdordagi nazariy bilimlarni oladilar, balki ularni haqiqiy kasbiy sharoitlarda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. B. I. Hasanning ta’kidlashicha, kompetensiya – bu maqsad, kompetensiya – natija va ularga erishish chorasi – kompetensiya ko‘rsatkichi. Ya’ni, hozirgi kunga qadar o‘qitish mazmunidan o‘quvchilar o‘quv yakunida ko‘rsatishi kerak bo‘lgan o‘quv faoliyati natijalariga ustuvorliklarni ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi. Kompetensiyaning yo‘nalishi bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi va dolzarbligini baholashdan iborat.

Kompetensiyalarni shakllantirishning umumiy muammosi tadqiqotchilar tomonidan bir necha yillardan beri o‘rganilib kelinmoqda. Bu savol E. F. Zeer, G.K.ning asarlarida keltirilgan. Elektron ta’lim vositalaridan foydalanish bilan kompetensiyalarni shakllantirish mavzusi P.K.Petrov, O.A.Kozlov, T.A.Ko‘chki,

A.A.Andreev, I.V.Sergienko, Selevko, G.S.Trofimova kabi izlanuvchilar ishlarida keng tadqiq qilingan. Bizning fikrimizcha, kommunikativ kompetentsiyalarni egallash turli xil shaxs, malakali mutaxassisni shakllantirishning zaruriy shartidir [5, 425-b].

Tadqiqot metodologiyasi. Aralashtirilgan ta'lim (elektron texnologiyalardan foydalangan holda) kompetensiya yondashuvi kontekstida bitiruv malakasini oshirishga eng ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Blended Learning – bu kompyuter grafikasi, audio va video va interaktiv elementlar kabi maxsus axborot texnologiyalaridan foydalanadigan elektron ta'lim elementlari bilan an'anaviy elektron ta'lim shakllarining kombinatsiyasi [6, 1085-b]. Nutq asoslarini egallash, asosiy muloqot ko'nikmalariga ega bo'lish, shaxslararo va ishbilarmonlik munosabatlarini o'rnatish, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish qobiliyati, biznes muammolarini muhokama qilish va o'z nuqtai nazarini himoya qilish qobiliyati kabi umumiy kasbiy muloqot ko'nikmalari bevosita o'zaro ta'sir natijasida shakllanadi.

Kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishni, masalan, elektron sharoitda loyiha faoliyati orqali tashkil etish mumkin. O'quvchilarni elektron texnologiyalar yordamida tayyorlashda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish, bizningcha, malakali mutaxassis bo'lib yetishishning yangi yo'llarini ochadi. Zamonaviy bitiruvchilar egallagan malakalari tufayli mehnat bozorida talabga aylanib bormoqda. Bizda kasbiy ta'lim har doim davlat va jamiyat ehtiyojlariga asoslangan. Aralash ta'lim esa resurslar va xizmatlardan tezkor foydalanishni, ularning almashinuvini va ta'lim jarayoni ishtirokchilarining faol birgalikdagi ishini ta'minlaydigan istiqbolli ta'lim turidir. Bu o'quv vaqtini tejash imkonini beradi, o'qituvchilar va tadqiqotchilarni innovatsion usullar, texnologiyalar, ishlab chiqish vositalari va elektron ta'lim yechimlaridan foydalanishga qaratadi.

O'rta maktablarda keng ko'lamli elektron vositalar, jumladan, o'quv jarayonini faollashtirish, bitiruvchining hayoti va kasbiy faoliyatida foydalanishi mumkin bo'lgan ajralmas kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beruvchi elektron kurslar qo'llaniladi. Elektron ta'lim aralash dasturning bir qismidir. Ya'ni, elektron ta'lim bilan an'anaviy shakllarni to'ldirib, malakali bitiruvchini tayyorlash imkonini beruvchi zarur vositalar bilan to'liq ta'minlangan ta'lim jarayoniga ega bo'lamiz. Ta'lim jarayoni an'anaviy va elektron ta'limning o'zgaruvchan bosqichlari bilan birlashtirilgan. Mutaxassislar ushbu turdagi treningni faol amalga oshirishning bir nechta sabablarini aniqlaydilar:

– talabalar uchun kurash (iqtisodiy sabab),

– ta'lim sifatini oshirish istagi (sifatli sabab),

– universitet samaradorligini oshirish istagi (samaradorlik sababi).

Yurtimizda ko'plab ta'lim muassasalari boshqa elektron ta'lim platformalari qatorida Moodle-ni tanlaydi. Moodle universal dasturiy platformasidan foydalangan holda elektron ta'lim tizimi (e-learning) axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda elektron ta'limni amalga oshirish imkonini beradi; Har qanday shaklda taqdim etilgan ma'lumotlarni uzatish va qabul qilish, interaktiv muloqotni qo'llab-quvvatlash, shu bilan birga axborotni to'plash, qayta ishlash,

uzatish, arxivlash va translyatsiya qilish imkoniyatini ta’minlash bilan ham bu tizim ahamiyatlidir.

Dunyoda onlayn ta’limni joriy etish darajasini tavsiflab, barcha tahlilchilar bu borada AQShning shubhasiz yetakchiligini ta’kidlamoqda. Qo‘shma Shtatlarda oliy ta’lim muassasalarining 81% kamida bitta masofaviy ta’lim kursini taklif qiladi, AQShdagi barcha maktablarning 67% masofaviy ta’limni rivojlanishning strategik muhim sohasi deb biladi [8, 163-b].

Tahlil va natijalar. Umumlashtirilgan tajriba ko‘rib chiqilayotgan kompetensiyalarni shakllantirish muammosini yaxshi bilish to‘g‘risida xulosa chiqarishga olib keldi. Shu bilan birga, biz aralash ta’lim kontekstida kommunikativ kompetentsiyalarni shakllantirishga unchalik ko‘p ish ajratilmaganligini ham ta’kidladik. An’anaviy va to‘liq masofaviy ta’limga nisbatan o‘zining afzalliklarini isbotlagan aralash ta’limni amalga oshirish bo‘yicha muvaffaqiyatli tajriba ko‘rib chiqildi. Kommunikativ kompetentsiyalarni shakllantirishda aralash ta’lim bo‘yicha o‘qitish samaradorligini aniqlash bo‘yicha tadqiqot yordamida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda aralash ta’limdan foydalanishning maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdik. Jizzax politexnika instituti talabalari kichik guruhlarga bo‘lingan holda loyihani yakunlash uchun taklif qilindi. Loyihada 67 nafar talaba ishtirok etdi (“Kasb-hunar ta’limi (tarmoqlar bo‘yicha”) yo‘nalishi “Qurilish”, “Neft va gaz biznesi” yo‘nalishi). Aralashtirilgan ta’lim sharoitida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish samaradorligini “o‘sish” darajasini aniqlash uchun nazorat va eksperimental guruhlarda foizlarda va ballarda o‘rtacha miqdoriy ko‘rsatkichlar solishtirildi. Shuningdek, talabalardan ularning aralash ta’lim faoliyatiga ta’sir darajasi haqidagi ba’zi savollarga javob berish, ushbu turdagi mashg‘ulotlarga o‘zlarining munosabatlarini aniqlash taklif qilindi. (“Sizningcha, elektron vositalar hamkorlar bilan muloqot qilishda sizga yordam berdimi?”, “Sizning fikringizcha, taklif etilayotgan trening shakli qulaymi?”).

Kommunikativ kompetentsiyalarni shakllantirish vositasi sifatida zamonaviy o‘quv jarayonini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyati tahlil qilindi; yoshlarning yosh xususiyatlarini ochib berildi (ratsionalizm, o‘z-o‘zini anglash, o‘zini-o‘zi qadrlash, yutuqlarga bo‘lgan ehtiyoj). Ishlar mutaxassislar nazorati ostida olib borildi.

Tajriba ishi quyidagicha olib borildi:

Talabalar guruhlarga bo‘lingan. Birinchi guruhda mashg‘ulotlar an’anaviy shaklda (nazorat guruhida), ikkinchisida – aralash (eksperimental guruh)da natijalarning o‘zgarish dinamikasini kuzatish va uning asosida samaradorligi to‘g‘risida xulosalar chiqarish uchun o‘tkazildi. Shundan so‘ng bir xil o‘quvchilar uchun aralash ta’lim sharoitida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish samaradorligi sinovdan o‘tkazildi.

Qobiliyatni shakllantirishni tekshirish uchun innovatsion nazorat usullari sifatida quyidagi usullar qo‘llanildi: keys usuli, loyiha usuli, elektron test, portfel. Elektron tizimlardan foydalanish bizga nazorat qilinadigan materialni talabalar tomonidan o‘zlashtirilishi bo‘yicha obyektiv ma’lumotlarni tezda olish imkonini berdi.

Aralashtirilgan ta’lim sizga o‘quv jarayonini nazorat qilish va tahlil qilish imkonini beradi, shuning uchun kommunikativ kompetensiyaning to‘liq shakllanmaganligi uchun deyarli hech qanday tahdid yo‘q. O‘qituvchi

o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga mos ravishda kerakli tarkibni tanlaydi yoki multimedia kontentidan foydalangan holda mualliflikdan foydalanadi.

O‘qituvchining roli o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishni rag‘batlantirish maqsadida ularga yo‘naltirish va ta’sir qilishdir (Skatovaet all, 2018). Elektron kurs vositalaridan doimiy ravishda onlayn foydalanish talabalarning faolligini oshiradi va shu bilan ularning ushbu turdagi treningning afzalliklari bilan muloqotda ishtirok etishini ta’minlaydi. Aralashtirilgan ta’lim uchun o‘quv jarayoni an’anaviy va elektron ta’limning o‘zgaruvchan bosqichlari bilan birlashtirilgan. Dastlab, talabalar ushbu turdagi treningga to‘g‘ri tayyorgarlik ko‘rishlari kerak. Shuning uchun o‘qituvchi maxsus ma’lumot xatlarini taqdim etadi, maslahatlar beradi, video materiallardan foydalangan holda shaxsan brifing va kurs haqida qisqacha ma’lumot beradi, qo‘llaniladigan texnologiyalar haqida umumiy ma’lumot beradi. Bundan tashqari, u auditoriyada kontseptual taqdimotlar o‘tkazadi, virtual seminarlar va amaliy tadqiqotlarni namoyish etadi [6, 1082-b]. Shundan so‘ng, talabalar o‘qituvchi nazorati ostida tajribalar o‘tkazadilar, simulyatsiya tizimlaridan foydalangan holda yechimlarni izlaydilar, ilgari bajargan vazifalar misolida mashqlarni bajaradilar. O‘qituvchi talabalarga elektron platformada kursga doimiy kirishni ta’minlashi, topshiriq davomida talabalarga kerak bo‘lishi mumkin bo‘lgan kurs bo‘yicha yo‘l-yo‘riq va ko‘rsatmalar berishi kerak. O‘qituvchi (repetitor) talabalarni onlayn ravishda qo‘llab-quvvatlashi kerak.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, elektron ta’lim an’anaviyni to‘ldirishi kerak. Vazifalar elektron shaklda faqat o‘qituvchiga talabalar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga ko‘rsatma berilgandan so‘ng bajarilishi kerak, chunki dastlabki bosqichlarda o‘qituvchiga ma’lumotni yaxshiroq idrok etish uchun shaxsan so‘rashi oson va yaxshi bo‘lgan aniqlovchi savollar paydo bo‘lishi mumkin.

Kommunikativ kompetentsiya tarkibi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi: zarur tillarni bilish (muloqotning belgilangan maqsadlariga erishish uchun ulardan foydalanish); boshqalar va uzoq odamlar va hodisalar bilan muloqot qilish usullarini bilish; guruhda ishlash ko‘nikmalari; Jamoada turli xil ijtimoiy rollarga ega bo‘lish [7, 120-b]. Kelajakda o‘qituvchi kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishni davom ettirish uchun Moodle tizimi tomonidan taqdim etilgan vositalarni faol ravishda amalga oshirishi mumkin. Ular orasida: wiki, blog, chat, forum, vebinar. Muloqot ko‘nikmalarini kichik guruhlarda bajariladigan turli vazifalar orqali ham o'rgatish mumkin. Elektron platforma ushbu vazifani muvaffaqiyatli bajarishga imkon beradi. Foydalanish darajasi o‘quv yili va o‘qitish yo‘nalishiga qarab o‘zgaradi, chunki kursni yaratish va mazmuni ta’lim muassasasining professor-o‘qituvchilariga bog‘liq.

Kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish loyiha faoliyati orqali muvaffaqiyatli o‘tish mumkin. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilar oldiga haqiqiy muammoni qo‘yadi. Talabalar mustaqil ravishda ma’lumot to‘playdi va tahlil qiladi, faktlarni umumlashtiradi va dizayn muammosini hal qilish usullarini tanlash bilan shug‘ullanadi.

Loyihani amalga oshirish jarayonida shakllanadigan kommunikativ vakolatlarga quyidagilar kiradi: tashkilotning (korxonaning) samarali aloqa infratuzilmasini yaratishda ishtirok etish, ichki va tashqi aloqani ta’minlash, korporativ madaniyatni

shakllantirish va qo‘llab-quvvatlashda ishtirok etish qobiliyati; aloqa kompaniyalari va tadbirlarini rejalashtirish, tayyorlash va o‘tkazishda ishtirok etish qobiliyati.

Elektron ta’lim haqida gapirganda, birinchi navbatda, talaba har qanday qurilmadan, shu jumladan mobil qurilmadan elektron kurslardan teng foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerakligini unutmaslik kerak, bu ham kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga bevosita ta’sir qiladi. Matn formatiga qo‘shimcha ravishda axborotni taqdim etish usuli sifatida ham siz audio materiallardan, 6-9 daqiqadan ko‘p bo‘lmagan videolardan, shuningdek moslashtirilgan interaktiv rasmlar va infografikalardan foydalanishingiz, tuzilgan matnlardan (kartalarda) foydalanishingiz, nafaqat tekshirish, balki testlarni ham taqdim etishingiz kerak.

Xulosa. Aralashtirilgan ta'lim kontekstida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning har tomonlama ko‘rib chiqilishi keltirilgan. Kompetentlik yondashuvining jihatlari ochib berilgan, elektron ta’limning mohiyati tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida biz kommunikativ kompetentsiyalarning asosiy tushunchalari va mohiyatini aniqladik. Elektron ta’lim platformasining imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. Moodle resurslaridan foydalanish tufayli kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish jadalroq ekanligi aniqlashtirildi.

Biz muloqot ko‘nikmalarini kichik guruhlar tomonidan bajariladigan turli vazifalar orqali ham o‘rgatish mumkinligini aniqladik. Elektron platforma ushbu vazifani muvaffaqiyatli bajarishga imkon beradi. Deyarli barcha talabalar (79%) elektron vositalar bilan ishlashga tayyor va ularning ilovasini foydali deb bilishadi. Tadqiqot shuni tasdiqlaydiki, aralash ta’lim sizga bitiruvchilarning malakasini rivojlantirish chegaralarini kengaytirish imkonini beradi. Olingan ma’lumotlar aralash ta’lim kontekstida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning yuqori ko‘rsatkichlarini aniqlashga imkon berdi. Yuqorida aytilganlarning barchasini hisobga olgan holda, biz aralash ta’lim zarurligi haqida gapirishimiz mumkin, chunki kompetensiyaga asoslangan yondashuv doirasida u ko‘p qirrali va malakali bitiruvchini rivojlantirish uchun eng yaxshi tarzda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berry J. W., Poortinga Y. H., Segall M. H., & Dasen P. R. 2002. Madaniyatlararo psixologiya: tadqiqot va ilovalar. Kembrij universiteti matbuoti. Britzman, 2013.

2. Bulaeva M. N., Vaganova O. I., Gladkova M. N., 2018. Kasbiy ta'lim muassasasida faoliyat texnologiyalari. Boltiqbo‘yi gumanitar jurnali. 3 (24).
– B.167-170. https://elibrary.ru/item.asp?id=36237878

3. Chaikina Z. V., Shevchenko S. M., Muxina M. V., Katkova O. V. va Kutepova L. I. 2017-yil, iyul. Elektron test o‘quv-tarbiyaviy faoliyat natijalarini nazorat qilish jarayonini optimallashtirish vositasi sifatida. Inson zamonaviy ilm-fan tomonidan o‘rganish ob’ekti sifatida, xalqaro konferentsiya. – B. 194-200.

4. Ergasheva Feruza Avasxonovna. Grammatical interference in students` speech in language learning. Academia Repository, 5 (1), 2024. – P. 226–232. Retrieved from http://academiarepo.org/index.php/1/article/view/401

5. Garina E. P., Garin A. P., Kuznetsov V. P., Popkova E. G. va Potashnik Y. S. Kompleks mahsulotni rivojlantirish sharoitida sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish

yondashuvlarini taqqoslash. Inson zamonaviy ilm-fan tomonidan o‘rganish ob’ekti sifatida, xalqaro konferentsiya. 2017-yil, iyul. –P. 422-431.

6. Ilyashenko L. K., Prokhorova M. P., Vaganova O. I., Smirnova Z. V., & Aleshugina E. A. Managerial preparation of engineers with eyes of students. International Journal of Mechanical Engineering and Technology, 9 (4), 2018. – P. 1080-1087.

7. Nikolai F., &Kobylin I. American trauma studies and the limits of their transitivity in russia heart-to-heart talks with veterans of local conflicts. Logos, (5), 2017. – P. 115-136.

8. Мамаризаева Ф. Литеральный перевод – средство литерального общения и взаимодействия. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 6 (3), 2022. – С. 50-55. https://www.scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/78

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDAGI KASBIY QOBILIYATLAR

Xodjayeva Mahliyo Hakimovna, Jizzax politexnika instituti “Xorijiy tillar” kafedrasi assistenti
e-mail: mahliyokh@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yurtimizda ta’lim tizimida bo‘layotgan o‘zgarishlarda, o‘qituvchilarga bo‘layotgan e’tibor darajasi va ulardan talab qilinayotgan kasbiy mahoratlari haqida so‘z yuritiladi. Bundan tashqari, ta‘lim sohasida o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘ymoqchi bo‘lgan bo‘lajak boshlang‘ich sinf ingliz tili o‘qituvchilarida kasbiy mahorat qanday bo‘lishi kerakligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ta‘lim, tarbiya, qobiliyatlar, pedagogik mahorat, yosh xususiyatlari, kasbiy bilim, kasbiy mahorat, bo‘lajak pedagog faoliyati.

PROFESSIONAL SKILLS OF FUTURE PRIMARY ENGLISH TEACHERS

Abstract. This article talks about the changes taking place in the education system of our country, the level of attention paid to teachers and the professional skills required of them. In addition, it is thought about what professional skills should be in the future elementary English teachers who want to start their activities in the field of education.

Keywords: education, skills, pedagogical skills, age characteristics, professional knowledge, professional skills, future pedagogic activities

ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ НАВЫКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОГО АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В данной статье говорится об изменениях, происходящих в системе образования нашей страны, уровне внимания, уделяемого учителям, и требуемых от них профессиональных навыках. Кроме того, задумывается о том, какими профессиональными навыками должны обладать будущие учителя начального английского языка, желающие начать свою деятельность в сфере образования.

Ключевые слова: образование, воспитание, умения, педагогическое мастерство, возрастные особенности, профессиональные знания, профессиональные навыки, будущая педагогическая деятельность.

